АРХИТЕКТУРА, ДИЗАЙН И ИСТОРИЯ ИСКУССТВ

BITIK AHLLARI

Holberdiyeva Ziyoda Abdurahmonovna – 1-kurs magistranti
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti. (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotasiya. *“Bitik-ahllari” mavzusi sharqona tamaddun, ayniqsa, islomiy san’atda alohida o‘rin egallagan xattotlik an’analarini tadqiq qilishga bag‘ishlangan. Bu mavzu orqali nafis yozuv san’atining tarihiy ildizlari, uning taraqqiyoti, go‘zalikka oid va ma’naviy jihatlari chuqur tahlil qilinadi. Xattotlik san’ati avloddan-avlodga o‘tib Qur’oni karim oyatlari, hadislar, adabiy asarlar va tarihiy qo‘lyozmalarni go‘zal shaklda bayon vositasi sifatida rivojlangan.*

Toshkent zamonaviy xattotligi va umuman Markaziy Osiyo hududida ham maktablari shakllanib, o‘ziga xos uslublar paydo bo‘lgan. Nufuzli xattotlarning ijodi o‘z davrining ma’naviy merosga oid taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan. Ular yaratgan qo‘lyozmalar bugungi kunda ham muzeylar, kutubhonalar va arxivlarda bebaho meros sifatida saqlanmoqda.

Mavzu davomida xattotlikning turli bitik shakllari-kufiy, nash, suls,nastaliq, shikasta kabi uslublar va ularning muhim hususiyatlari haqida so‘z yuritiladi. Mazkur yozuvlarning yozish tehnikasi va ishlatiladigan an’anaviy vositalar- qalam, siyoh, tush, qog‘oz haqida aytib o‘tiladi.

Hozirgi zamonda xattotlik san’ati yangicha tehnologiyalar va grafik dizayn bilan uyg‘unlashib, yangi ko‘rinishlarda qayta tiklanmoqda. Bu esa bitik ahli merosining abadiyligini va yosh avlodga ilhom berishda davom etayotganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar*: qo‘lyozma, xattotlik, uslub, qog‘oz, rasm.*

CALLIGRAPHY MASTERS

Holberdiyeva Ziyoda Abdurahmonovna – 1st year master's student
National institute Fine arts and Design after named Kamoliddin Behzod (Tashkent, Uzbekistan)

Annotation. *The topic “Bitik-ahllari” (People of the Script) is dedicated to the study of the traditions of calligraphy, which holds a significant place in Eastern civilization, especially in Islamic art. Through this subject, the historical roots, development, aesthetic beauty, and spiritual aspects of fine writing are thoroughly analyzed. The art of calligraphy evolved as a beautiful means of expressing Qur’anic verses, hadiths, literary works, and historical manuscripts, passed down from generation to generation.*

In the region of Central Asia, including Tashkent, distinctive schools of calligraphy emerged, each developing its own unique styles. Prominent calligraphers made significant contributions to the cultural development of their time through their artistic legacy. The handwritten manuscripts they created are now preserved as valuable heritage in museums, libraries, and archives.

The subject explores various classical styles of calligraphy such as kufic, naskh, thuluth, nastaliq, and shikasta, along with their distinguishing features. It also covers the traditional tools and techniques used in calligraphy, including the reed pen, ink, pigments, and paper.

In modern times, the art of calligraphy is being revived in new forms by merging with contemporary technologies and graphic design. This demonstrates the timeless nature of the heritage of the “Bitik ahli” and its continued role in inspiring new generations.

Keywords*: manuscript, calligraphy, style, paper, painting.*

МАСТЕРА КАЛЛИГРАФИИ

Холбердыева Зиеда Абдурахмоновна – студентка 1 курса магистратуры
Национальный институт художеств и дизайна им. К. Бегзода. (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. *Тема «Битик-ахллари» посвящена изучению традиций каллиграфии, которая занимает особое место в восточной цивилизации, особенно в исламском искусстве. Через эту тему всесторонне анализируются исторические корни, развитие, эстетические и духовные аспекты изящного письма и каллиграфического искусства. Искусство каллиграфии развивалось как средство красивого выражения аятов Священного Корана, хадисов, литературных произведений и исторических рукописей, передававшихся из поколения в поколение.*

В Ташкенте и в целом на территории Средней Азии сформировались каллиграфические школы, каждая из которых имела свои уникальные стили. Творчество выдающихся каллиграфов своего времени сыграло важную роль в духовно-культурном развитии. Созданные ими рукописи сегодня хранятся как ценное наследие в музеях, библиотеках и архивах.

В рамках темы рассматриваются такие стили письма, как куфи, насх, сулс, насталик, шикеста, а также особенности каждого из них. Также даётся информация о традиционных инструментах, используемых в каллиграфии — таких как калам (тростниковое перо), чернила, краски, бумага.

В наше время искусство каллиграфии возрождается в новых формах, сочетаясь с современными технологиями и графическим дизайном. Это демонстрирует вечность наследия «битик ахли» и его значимость в вдохновении молодого поколения.

Ключевые слова: *рукопись, каллиграфия, стиль, бумага, роспись.*

Xozirgi zamonda ona yurtimiz O 'zbekiston epigrafik osori-atiqalarining miqdori va noyobligi bo 'yicha Markaziy Osiyoda shubhasiz yetakchi davlat hisoblanadi. Olimlarimiz tomonidan adimgi qo 'lyozmalar va bitiklar sinchiklab o 'rganilmoqda. Prezidentimiz tomonidan bunga shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Mamlakatimiz farovonligi tufayli yodgorliklarning o 'tmishdagi munosib joyi tiklandi, qadimiy bitiklarni o 'rganish, ularni o 'qish va ma'nolarini aniqlashtirish imkoniyati dunyoga keldi.

Nufuzli xattot Habibullo Solih. Naqshin yozuvlarning muallifi mashhur kalligraf Habibullo Solih 40 dan ortiq xattotlar qo'lyozma kitoblar tayyorlash, yaroqsiz holga kelganlarini ta'mirlash bilan mashg 'ul bo 'lgan. Asosan xattotlik san'atiga bag 'ishlangan ko'plab risolalar 10 xil asosiy xat uslublari nasx, kufiy, muxaqqaq, nasta'liq, suls, tavqe ta'liq, devoniy, riqo, riqiylarni o'rganib chiqqan olimdir. Yurtimizning qadimiy osori-atiqalarining bezagida kufiy yozuvi ko'p ishlatilgan. Shuningdek, O'zbekiston musulmonlari diniy idorasida saqlanayotgan Usmon Qur'oni kufiy (qadimgi hijoz adabiy yozuvi)da ko'chirilgan. Quron ko'chirishda xattotlarimiz nasx usludidan foydalanishgan. Turli xil buyruqlar va farmonlar yozishda tavqe, xatlar yozishda riqo ishlatilgan. Yuqoridagi sanab o'tilgan xat uslublaridan tashqari tumor, g'ubor, shajariy, tug'ro va boshqa yozuv usullari ham mavjuddir.

Habibullo Solih Mushafi usmon qur'oning asl nusxasidan pergamentga 3 marta nusxa ko'chirib tayyorlagan yuksak salohiyatli insondir.mazkur qur'onning bir nushasi Malayziyaning Kuala-Lumpur shahrida bo 'lsa, pergamentga ko'chirib tayyorlangan yana bir nusxasi Toshkent islom universitetida saqlanmoqda. Katta Langar Qur'onidan Sankt-Peter-

burg shahrida saqlanayotga va O 'zbekistondagi nusxalari asosida teriga ko 'chirib nusxa tayyorlangan. Habibullo Solih 1998-yilda Istanbulda o 'tkazilgan Xalqaro xattotlar bellashuvida "Devoniy" xat uslubi bo 'yicha kuchli o 'ntalikka kirgan sharafli insonlar sirasiga kiradi. Moxir usta 1999 yilda xattotlikda yangi tarz "naqshin bezak yozuvninig alifbosini kashf qilib bu sohada yangilik" paydo qildi. Shu ishi sababli Lohurdagi Xalqaro xattotlar bellashuvida "Parvin raqam" ("Sharq yulduzi") unvoniga sabab bo 'ldi.Xattotlik hozirgi kunda Toshkent sharqshunoslik instituti, Toshkent islom universiteti, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida o 'rgatiladi.

Mamatov Islom Muhammad. O 'z ishining ustasi xattot Mamatov Islom Muhammad 1965-yil Dushanbe shahrida tug'ilgan. Toshkentdagi 10 - maktabni bitirgan. 14 yoshdan boshlab, ya'ni 8 – sinfdan bosh lab naqsh va xattotlik san'ati bilan chin dildan shug'ullana boshlagan. 1989 – yil Buxoro Mir Arab madrasasida ta'lim olgan va 1993 – yilda tugatgan. 1998 – yilda Toshkent Islom institutida bakalavrni tomomlaydi.

Tanlovlarda ishtiroki: Pokistonda, Turkiyada, Istanbulda. Ustozlari: Xabibulloh Solih. Unvonlar:kumush medal, oltin medal sohibi.

Uslublar xat: xatlar turi juda ko'p: nasx, nasx buxoriy, kufi xijoziy, kufi bannoi, ma'qali, muharraq, rayxoniy shu xatlardan foydalaniadi. Mamatov Islom Muhammadning otalari yodgorliklar va binolardagi me'moriy bitiklarning ta'mirlash ishlari bilan shug'ullangan. O'zbekistonda joylashgan ko'plab masjid, madrasa va me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash ishlarida qatnashgan.

Malakali xattot va o'z ishining ustasi Mamatov Islom Muhammad yutimizda va o'zga makonlarda joylashgan masjid, madrasa, me'moriy yodgorliklarning ta'mirlash ishlarida sidqidildan xizmat qilgan. Masalan: Toshkent shahrida joylashgan Xazrati Imom majmuasida 2007-yili ishtirok etgan. "Minor masjidi", Chimir ota masjidi", Kamolon masjidi" " Ho' ja Alambardor masjidi", "Firdavs masjidi", "Ilonli –ota masjidi", Ubay ibn Ka'b masjidi", "Hasanxon qori masjidi", (haytek uslubida barpo etilgan). "Zangiota Ziyoratgohi masjidi" "Islom Sivilizatsiya markazi" me'moriy obyektlaridagi barcha yozuvlarni xattotlik uslubida yozib chiqqanlar. Jahonga dong'i ketgan usta Mamatov Islom Muhammad suls xatida ishlashni xush ko 'radilar.

Samarqandda "Ho 'ja Abdudarund" masjidi" va maqbarasining bitiklarini yozib berganlar. Shuningdek usta Urgut timpani va Jizzah viloyatining masjidlaridagi ta'mirlash ishlarida o 'z faoliyatlarini olib borgan.

Xattotning ishlash tehnikasi: ish jarayonida shablon 1:1 andozani oladi, shu andoza asosida barcha ishlar boshlanadi. Koshinchi koshin terishni boshlaydi. Duradgor o'yma naqshlarini o'yib beradi. Mamatov Islom Muhammadning shogirdlarining sanog'i yo'q. Ular xozirda yana yangi o 'quvchilar yetishtirishmoqda. Ulardan biri yosh izlanuvchan xattot

Sofiya Samiyeva Salohiiddin qizi. 1998 - yil Toshkent shahar Yakkasaroy tumanida tug'ilgan. 2014 - yil 48-maktabni tugatgan. 2014 - yil Toshkent pedagogika bilim yurtiga kirgan. 2017 - yil Toshkent pedagogika bilim yurtini tugatgan. 2023 - yil TDSHI - "Arab filologiyasi" fakultetiga o'qishga kirgan. Xattotlik bilan 2023 - yildan beri, ya'ni 2 yildan beri shug'ullanib kelmoqda. Nastaliq, suls, nasx buxoriy xat uslubida ijod qiadi. Kamoliddin Behzod nomidagi muzeyda ishlari saqlanadi.

Xattot va naqqosh ustasi Orifjonov Ulug'bek Abrorovich siymosi. San'at inson uchun muhim ahamiyatga ega. Ayrimlar tasviriy san'atga ruju qo'ysa ayrim boshqa odamlar amaliy san'at ihlosmandi bo'lishadi. Jamiyatda o'zining o'rniga ega bo'lgan, yuksak iste'dod egasi, taniqli ijodkor Orifjonov Ulug'bek Abrorovich 1971-yili Toshkent shahrida dunyoga keldi. 1985-yili o'rta maktabni tamomlab, shu yili P.P. Benkov nomidagi Respublika rassomchilik bilim yurtining " Miniatyura san'ati"

yo‘nalishiga o‘qishga kirdi. 1990-yil mazkur dargohni tamomlab, Toshkent Politexnika instituti “ Arxitektura yo‘nalishi”ga o‘qishga kirdi. 2016-yildan boshlab Orifjonov Ulug‘bek Abrorovich xattotlik san’ati bilan jiddiy shug 'ullana boshladi. Ijtimoiy tarmoq orqali Turkiyada istiqomat qiladigan, ustozlari Ahmed Demir, Avniy Naqqosh o 'g 'lidan saboq oldi. Toshkentlik usta Badalov Salim ham unga xattotlik sirlarini o 'rgatgan.

Xattot va naqqosh usta asosan 2 xil uslubda ijod qiladi:

1 Kufiy-fotimiy.

2 Kufiy-mushafiy.

Ayrim paytlarda nasta’liq xatiga ham murojaat qiladi. Taniqli usta o‘z ishini juda sevadi. Kamoliddin Behzod nomidagi Sharq miniatyura san’ati muzey fondiga ishlari harid qilingan.

Xattotlik san’ati texnikasi.

Dastlab rulonli metrli vatman qog‘oz olinadi. Undan so‘ng har bir chizilgan kompozitsiya o‘lchamida qirqib olinadi. Keyin esa, uni piyoz po‘chog‘i suviga yoki anor po‘stining sharbatiga yoki choyga bo‘yaladi. Shu asnoda quritib, ikki tomonlama orqa va old tarafi kraxmallanadi. So‘ng qog‘oz yana quritiladi. Shisha idish yordamida qog‘ozning orqa va old tarafi sayqallanadi. Tekislangach ustiga asar chizila boshlanadi.Eng so‘ngida asar tugatiladi.

O‘zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi a’zosi Orifjonov Ulug‘bek Abrorovich O 'zbekiston xattotlik san’atini rivojlantirishga qo 'shayotgan xissasi hamda “Mutakallim bitiklari” nomli shaxsiy ko 'rgazmasi uchun Tashakkurnoma bilan taqdirlangan. Mazkur shaxsiy ko 'rgazma Toshkent shahar, Sharof Rashidov 40-uyda joylashgan Kamoliddin Behzod nomidagi Sharq miniatyura san’ati muzeyida 2024-yilda bo 'lib o 'tgan. Shuningdek usta Orifjonov Ulug‘bek Abrorovich suls, mahaqqaq, riqo, shikasta uslublari bilan ham mashq qilganlar. Siyoh, tempera, akril, tilla(susalniy), kumushdan ish faoliyatlari davomida unumli foydalanadilar. Tush yordamida qamish bilan yozilgan ishlari talayginadir. Ish jarayonida doimiy ravishda xattotlik qalami to 'plamidan foydalanadilar. Asosan xikmatli so 'zlar, oyatlar, hadislardan parchalar qog 'ozga tushiriladi. 2020-yili Yunisef ni tashabbusi bilan o‘tkazilgan Eron davlatida bo‘lib o‘tgan virtual masofaviy ko‘rgazmada faol qatnashgan. Eron davlatiga sayohat yutib olgan. Mazkur nufuzli musobaqada ustoz Orifjonov Ulug‘bek Abrorovich asosan kufiy-fotimiy uslubdagi asarlari bilan qatnashgan.

Xattot va naqqosh shuningdek o 'z asarlaridagi naqshlarda, Alisher Navoiy davridagi XV-XVI asrlarga xos Xirot naqqoshlik maktabi uslubini qo 'llaydi. Asosan o 'simliksimon va islimiy ornamentlardan unumli foydalanadi. Orifjonov Ulug‘bek Abrorovich sevimli shogirdlarning ustozidir. Ulardan biri o 'z farzandi Abdulbosit Abrorov Ulug 'bek o 'g 'lidir. Xattotlik bilan shug 'ullanayotganlariga besh yildan oshdi.

Abdulbosit Abrorov Ulug 'bek o 'g 'li 1996-yil 20-sentabrda Toshkent shahrida tug‘ilgan. P.P.Benkov nomidagi Rassomlik bilim yurtining “ Mahobatli rangtasvir” bo‘limini tugatgan. 2019-yili Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va Dizayn institutining “ Mahobatli rangtasvir” fakultetini tamomlagan. Ustozlari Bahodir Jalolov va Tyurinlar bo‘lgan. 2017-yili Institut miqyosida o‘z shaxsiy ko‘rgazmasini qilgan. 2019-yili Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va Dizayn institutining “Mahobatli rangtasvir” fakultetini tamomlagan. Ustozlari Bahodir Jalolov va Tyurinlar bo‘lgan. 2017-yili Institut miqyosida o‘z shaxsiy ko‘rgazmasini qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Toshkent shahridagi zamonaviy xattotlar juda bisyordir, Ularning o 'z uslubi va tehnikasi mavjud. Biz ularning ishlariga zafarlar tilab qolamiz. Kelajakda juda ko 'p yetuk kadrlarni va shogirdlarni yetishtirib chiqishsin. Yurtimizni dunyoga tanitishda davom etishsin. Yangi-yangi marralarni zafar bilan iroda va mehnat bilan olg 'a intilishsin.



Malakali xattot va o‘z ishining ustasi Mamatov Islom Muhammad ish jarayonida.



Xattot va naqqosh ustasi Orifjonov Ulug‘bek Abrorovich



ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Obidalaridagi bitiklar Xiva 2-jild, T-2022
2. Oriental miniatures volume II: 18th-19th centuries
3. Uzbekistan: Monuments of Islam, Tashkent. 2002